

12. Ko'p xonali sonlarning o'qilishi va yozilishi

Yondosh mavzu:
Buxoro viloyati

Sinflar va xonalar



1. 54 623, 73 725, 412 343, 198 735 sonlarini o'qing. Ularning xona va sinflarini ayting.

2. Sonlarni raqamlar yordamida yozing.

- a) Buxoroda bir yuz qirqdan ortiq tarixiy obida mavjud.
 - b) Minorai Kalon masjidining katta hovlisi ikki yuz sakkizta g'isht ustunlar bilan o'ralgan.
 - d) Devonbegi hovuziga to'rt ming kub metrdan ko'proq suv sig'adi.
- Bu sonlarni yozishda qaysi o'qilmaydigan raqamdan foydalanish mumkin?

Sonlarni o'qishda har bir sinf nomi alohida aytiladi. So'nggi sinf – birliklar sinfi nomini aytish shart emas.

Sinfning ichida raqamning o'z o'rne – xonasi bor.

Agar xonada 0 turgan bo'lsa, bu xona o'qilmaydi.

Millionlar			Minglar			Birlar		
Yuzlar	O'nlar	Birlar	Yuzlar	O'nlar	Birlar	Yuzlar	O'nlar	Birlar
	1	2	3	4	5	6	7	8
7	4	0	2	0	3	0	5	8

12 345 678 soni 12 million 345 ming 678 kabi o'qiladi.

740 203 058 soni 740 million 203 ming 58 kabi o'qiladi.

12. Ko'p xonali sonlarning o'qilishi va yozilishi

Agar sinfda uchta xonaning hammasida 0 raqami turgan bo'lsa, bu sinf nomi aytilmaydi.



Millionlar			Minglar			Birliklar		
Yuzlar	O'nlar	Birlar	Yuzlar	O'nlar	Birlar	Yuzlar	O'nlar	Birlar
	5	7	0	0	0	2	6	1

57 000 261 soni 57 million 261 kabi o'qiladi.



3. Jadvalda yozilgan sonlarni o'qing.

Millionlar			Minglar			Birliklar		
Yuzlar	O'nlar	Birlar	Yuzlar	O'nlar	Birlar	Yuzlar	O'nlar	Birlar
	1	1	1	0	3	2	7	0
				2	4	5	6	1
	7	0	6	8	0	0	8	5
				4	0	0	0	0
	1	0	0	0	0	0	0	0



4. Sonlarni jadvalga yozing va ularni o'qing:

61 987 652, 921 407 120, 32 780, 100 002, 28 000 036

Millionlar			Minglar			Birliklar		
Yuzlar	O'nlar	Birlar	Yuzlar	O'nlar	Birlar	Yuzlar	O'nlar	Birlar



5. Amallarni bajaring. Hosil bo'lgan sonlarni o'qing.

$$20 \cdot 4 + 40 \cdot 4$$

$$7 \cdot 90 + 30 \cdot 7$$

$$20 \cdot 30 + 50 \cdot 3$$

$$(5 + 278) \cdot 1\,000$$

$$(46 + 345) \cdot 100$$

$$(5 + 683) \cdot 10\,000$$

$$700 \cdot (153 + 47)$$

$$30 \cdot (284 + 316)$$

$$500 \cdot (179 - 89)$$

12. Ko'p xonali sonlarning o'qilishi va yozilishi



6. Buxoro zardo'zlik san'ati bilan shuhrat qozongan. 8 ta zar to'n ustida 40 nafar chevar mehnat qiladi. 7 ta to'nni tikish uchun nechta chevar kerak bo'ladi?




7. Tenglamalarni yeching va tekshiring.

$x - 657 = 209 + 98$	$860 - y = 119 + 237$
$750 + z = 430 + 524$	$t + 219 = 867 - 138$



8. Ikkita bir xil zardo'zlik naqshini toping.



9. Usta 3 kvadrat santimetr baxmalga 150 ta chok tikadi. 20 cm^2 naqsh tikish uchun nechta chok tikilishi kerak?



10. Hisoblang va chevarlar gul solib tikadigan naqsh qanday atalishini bilib oling.

G $259 + 317$

I $961 - 408$

U $345 - 117$

D $950 - 398$

L $322 + 167$

A $529 + 219$

Z $225 + 168$

O' $540 - 117$

N $300 - 225$

576	228	489	552	423	393	553
-----	-----	-----	-----	-----	-----	-----